

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OILANI MUSTAHKAMLASH  
SIYOSATI DOIRASIDA OILAVIY MUNOSABATLARNING  
BARQARORLIGINI TA‘MINLASH VA CHET EL TAJRIBASI HAMDA  
XALQARO ELEMENTLARNING AHAMIYATI**

**Rasulova Sarvinoz Sobirjon qizi**

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti*

*“Xalqaro huquq” fakulteti 2-kurs talabasi*

*Tel: +998 (88) 321 82 28*

*e-pochta: [sarvinozrasulova9999@gmail.com](mailto:sarvinozrasulova9999@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi globallashuv sharoitida individualizm va liberal g‘oyalarning oilaga salbiy ta’siri tahlil qilinadi. Raqobatli jamiyat va shaxsiy rivojlanishga intilish oilani ikkilamchi darajaga tushirayotgani, oila qurish va farzand ko‘rishning kechikishi kabi muammolarni yuzaga keltirayotgani ko‘rsatib o‘tiladi. Shu bilan birga, demografik barqarorlikning pasayishi masalalari ham ta’kidlangan. Maqolada xalqaro huquqiy me’yorlar va O‘zbekistondagi qonunchilik oilani mustahkamlash, gender tengligini ta’minlash va ayol-bola huquqlarini himoya qilish borasidagi davlat majburiyatlarini ko‘rsatadi. Davlat oilaga bevosita aralashmaydi, faqat oiladagi huquqiy tenglikni ta’minlash va buzilishlarning oldini olish bilan cheklanadi, bu orqali oilaviy mustaqillik va davlat mas’uliyati o‘rtasida muvozanat saqlanadi.

**Kalit so‘zlar:** Globallashuv, Individualizm, Oila instituti, Demografik barqarorlik, Gender tengligi, Ayollar va bolalar huquqlari, Nikoh shartnomasi, Maishiy zo‘ravonlik, ECHR, ICCPR, CEDAW, Oila kodeksi.

**Аннотация:** В данной статье анализируется негативное влияние индивидуализма и либеральных идей на институт семьи в условиях современной глобализации. Показано, что стремление к личностному развитию в конкурентном обществе приводит к тому, что семья становится вторичной ценностью, отсрочиваются брак и рождение детей. Также подчеркивается проблема снижения демографической устойчивости. Статья рассматривает международные правовые нормы и законодательство Узбекистана, показывая государственные обязанности по укреплению семьи,

обеспечению гендерного равенства и защите прав женщин и детей. Государство не вмешивается напрямую в жизнь семьи, ограничиваясь обеспечением правового равенства и предотвращением нарушений, что позволяет поддерживать баланс между семейной автономией и государственной ответственностью.

**Ключевые слова:** Глобализация, Индивидуализм, Институт семьи, Демографическая устойчивость, Гендерное равенство, Права женщин и детей, Брачный договор, Домашнее насилие, ЕКПЧ, МПГПП, CEDAW, Семейный кодекс.

**Annotation:** This article analyzes the negative impact of individualism and liberal ideas on the family institution in the context of modern globalization. It shows that the pursuit of personal development in a competitive society leads to family becoming a secondary priority, delaying marriage and childbearing. The issue of declining demographic stability is also highlighted. The article examines international legal norms and the legislation of Uzbekistan, demonstrating state obligations to strengthen the family, ensure gender equality, and protect the rights of women and children. The state does not directly interfere in family life but focuses on ensuring legal equality and preventing violations, thus maintaining a balance between family autonomy and state responsibility.

**Keywords:** Globalization, Individualism, Family institution, Demographic stability, Gender equality, Rights of women and children, Marriage contract, Domestic violence, ECHR, ICCPR, CEDAW, Family Code.

Hozirgi globallashuv sharoitida individualizm va liberal g'oyalarning keng tarqalishi oila institutining barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, uni ijtimoiy jihatdan og'riqli sohalardan biriga aylantirdi. Kapitalizm jahon mamlakatlari orasida keng tarqalishni boshlaganidan buyon asta-sekinlik bilan oila instituti o'z ahamiyatini yo'qotib, mustahkamligiga putur yetmoqda. Mutaxxasislarning ta'kidlashicha, ishlab chiqarish va bozor munosabatlari rivojlanishi natijasida shaxslarda raqobatli jamiyatda yashab qolish hissi, o'z ustida rivojlanishga, har tomonlama o'sishga fokuslarini qaratishlari oqibatida "indiviaduallik" tushunchasi qon-qonlariga singib ketmoqda. Shaxsiy rivojlanishga intilish oilani ikkilamchi darajadagi maqsad sifatida ko'rilishi va asosiy e'tibordan chiqib ketishiga olib kelmoqda. Bu esa o'z

navbatida oila qurishning kechikishi yoki kamayishiga, mavjud oilalarda esa farzand ko'rishga xohish sustlashishiga olib kelmoqda. Natijada, dunyo miqyosida, ayniqsa, **Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya** kabi rivojlangan mamlakatlarda tug'ilish kamligi va o'rtacha umr ko'rish yoshi balandligi tufayli mehnatga layoqatli aholi qatlamidan ko'ra pensiya yoshidagilar ko'proq ekanligi davlatlar iqtisodiyotiga ham zarar keltirmoqda. **United Nations Population Fund** ma'lumotlariga ko'ra, **1963-yilda** aholi o'sishi **2,3%** bo'lgan bo'lsa, **2022-yilga** kelib **0,8%** ni ko'rsatmoqda<sup>9</sup>. Agar shu ketishda ketadigan bo'lsa, oila instituti ommaviy ravishda yemirilb ketadi, bu o'z barobarida ham ijtimoiy sohaga, ham iqtisodiy sohaga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

Jahon hamjamiyati tomonidan oila institutini mustahkamlash, oilaviy qadriyatlarni qo'llab-quvvatlash va demografik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan tizimli choralar amalga oshirilmoqda. Oila institutining barqarorligini ta'minlash masalasi bugungi kunda faqat ichki davlat siyosati doirasida emas, balki xalqaro hamjamiyat e'tiborida ham turibdi. Bu borada bir qator xalqaro pakt va konvensiyalar qabul qilingan. Xususan, oila, nikoh va bolalar huquqlarini himoya qiluvchi xalqaro pakt va konvensiyalar bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, **“Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt”**ning **17-moddasida** hech kimning shaxsiy hayoti, oilasi, uy-joyi yoki yozishmalariga o'zboshimchalik bilan yoki qonunga xilof tarzda aralashuvga, shuningdek, uning sha'ni va obro'siga noqonuniy tajovuzlarga duchor etilmasligiga, bunday aralashuv yoki tajovuzlardan qonun tomonidan himoyalanih huquqiga egaligiga urg'u berilgan<sup>10</sup>. Shuningdek, **Birlashgan Millatlar Tashkiloti** tomonidan **1979-yilda** qabul qilingan **“The Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination against Women”** (Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya)da davlatlarga oilaviy munosabatlarda erkak va ayollarning teng huquqliligini ta'minlash bo'yicha aniq

---

<sup>9</sup> [https://www.unfpa.org/ms/8billion/8trends?utm\\_source](https://www.unfpa.org/ms/8billion/8trends?utm_source)

<sup>10</sup> International Covenant on Civil and Political Rights (ICCPR). Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt. [https://treaties.un.org/doc/treaties/1976/03/19760323%2006-17%20am/ch\\_iv\\_04.pdf](https://treaties.un.org/doc/treaties/1976/03/19760323%2006-17%20am/ch_iv_04.pdf)

majburiyatlar yuklaydi. Konvensiya, nafaqat, nikoh va oilaviy hayotda, balki meros, mol-mulk, bolalar tarbiyasi va ish bilan ta'minlash kabi barcha sohalarda ham ayollarga nisbatan diskriminatsiyani yo'q qilishni talab qilish orqali oilaviy munosabatlarda gender tengligini kafolatlab, ayollarning huquq va erkinliklarini himoya qilish orqali oila institutini mustahkamlashga xizmat qiladi<sup>11</sup>. **BMT Bosh Assembliesining 1966-yilning 16-dekabridagi qaroriga muvofiq qabul qilingan “International Covenant on Economic, Social and Cultural Rights”** xalqaro paktining **10-moddasida** shartnomaga qo'shilgan davlatlarda nikoh erkin kelishuv asosida tuzilishi va oilaga himoya va yordam berilishi kerakligi aytib o'tilgan<sup>12</sup>. Pakt onalarga pullik to'lanadigan ta'til va ijtimoiy yordam berilishi lozimligini, barcha bolalar va yoshlar ota-onalik holati yoki boshqa sharoitlar bo'yicha farq qilinmasdan alohida himoya va yordamga muhtojligini, ularni iqtisodiy va ijtimoiy ekspluatatsiyadan himoya qilish kerakligini nazarda tutadi va a'zo davlatlarga majburiyat sifatida yuklaydi. Shunday qilib, Xalqaro huquqiy me'yorlar oilani jamiyatning tabiiy va fundamental birligi sifatida tan olish bilan cheklanmay, balki davlatlar zimmasiga oilaning himoyasi, bolalar va ayollarning huquqlarini kafolatlash, shuningdek, gender tengligini ta'minlash bo'yicha aniq majburiyatlar yuklaydi, qilinayotgan ishlar samaradorligini nazorat qiladi, kamchiliklar aniqlangan taqdirda darhol samarali chora-tadbirlar ko'radi.

Yurtimizda ham azal-azaldan oila muqaddas sanalgan. Zardushtiylik davrida ham balogatga yetish bilanoq turmush qurish rag'batlantirilgan. Agar erkak va ayol kishi balog'atga yetib, zurriyod qoldirish qobiliyatiga ega bo'lsayu, ammo zurriyodni ko'paytirishga e'tiborsiz bo'lib, turmush qurmay yurgan bo'lsa, jamoa oldida sazoyi (sharmanda) qilingan. Zardusht Axuramazdadan: “Serfarzand oilaga nima berasan?”so'raganida, u: “Bunday odamlarni himoyamga olaman, hayotini farovon, rizqini mo'l qilaman”, - deb javob qaytarganligi oila bunyod etish

---

<sup>11</sup> The Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination against Women (CEDAW). Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya. <https://www.ohchr.org/en/treaty-bodies/cedaw>

<sup>12</sup> International Covenant on Economic Social and Cultural Rights (ICCPR). Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt. <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-economic-social-and-cultural-rights>

ragʻbatlantirilganligining yaqqal misoli boʻlib xizmat qiladi<sup>13</sup>. Shuningdek, Islomda ham Paygʻambarimiz Muhammad(s.a.v) ota-onalarga agar qurblari yetsa oʻgʻillarini tezroq uylantirib qoʻyishlarini tavsiya etganlar. Yaxshi tomoni shundaki, yurtimizda baʼzi rivojlangan mamlakatlardan farqli oʻlaroq, tom maʼnoda “oila qurishdan qochish” kabi muammo mavjud emas. Aynan shu jihatimiz davlatimiz rivojiga turtki boʻlayotgani jahon hamjamiyati tomonidan bir necha marotaba eʼtirof etilgani hech birimizga sir emas. Ammo, oilaning mustahkamligi va saqlab qolish bilan bogʻliq muammolarimiz ham ajralish koʻrsatkichlari yildan yilga oshib borayotganidan bilib olishimiz mumkin. Davlat hokimiyati organlari esa buni bartaraf etish, oila mustahkamligi taʼminlash, onalik va otalik huquqlari, bolalar huquqlari himoyasini taʼminlash masalasida qonunchilik hujjatlarida mustahkamlash, amaliy harakatlarni tadbiq etish, xorij tajribasining ishlaydigan, milliyligimizga toʻgʻri keladigan taraflarini joriy etish orqali chora-tadbirlar koʻrishmoqda. Oilaviy munosabatlarni tartibga solish va himoya qilish borasida eng aniq va amaliy yoʻl koʻrsatkichlaridan biri – Oʻzbekiston Respublikasining **Oila kodeksidir**. Kodeksining **2-moddasida** qonunchilik maqsadi oilani mustahkamlashdan, oilaviy munosabatlarni oʻzaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha aʼzolarining masʼulligi hissi asosida qurishdan, biron-bir shaxsning oila masalalariga oʻzboshimchalik bilan aralashishiga yoʻl qoʻymaslikdan, oila aʼzolari oʻz huquqlarini toʻsqinliksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini taʼminlashdan iboratligi taʼkidlangan<sup>14</sup>. Erkak va ayolning mulkiy va nomulkiy munosabatlarda tengligi tamoyili asosida oila, onalik, otalik va bolalik davlat himoyasiga olinadi. Davlat tenglikni taʼminlash, bazaviy inson huquqlarini himoya qilish maqsadida oilaviy huquqiy munosabatlarga taʼsirini oʻtkazish orqali masʼuliyatni boʻyniga oladi. Xalqaro darajadagi meʼyorlar oilani davlat va jamiyat himoyasidagi muqaddas institut sifatida eʼzozlab, ayni vaqtda oilada sodir boʻlishi mumkin boʻlgan inson huquqlari buzilishlariga davlat koʻz yummaslik, qonuniy choralar koʻrishlikni zarur hisoblab, anʼanaviy qadriyatlarga ham putur yetkazmagan holda oila institutiga kirib boradi. Bu yondashuv “oilaviy mustaqillik” va “davlat masʼuliyati” oʻrtasida oqilona balans saqlashni maqsad qilgan. Soʻz isboti sifatida oiladagi maishiy zoʻravonlikka qarshi kurash haqidagi

<sup>13</sup> [https://api.moiti.uz/media/book/Toplam\\_10-dekabr\\_kMtkTos.pdf](https://api.moiti.uz/media/book/Toplam_10-dekabr_kMtkTos.pdf)

<sup>14</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Oila kodeksi. <https://lex.uz/docs/-104720>

harakatlarni aytish mumkin. **Human Rights Watch** tashkilotining xulosalariga ko'ra, mahalla va boshqa rasmiylar oiladagi zo'rvonlik holatlarida ajralish statistikasini kamaytirish maqsadida jabrlangan ayollarni eriga qaytishga ko'ndirish, murosaga majburlash kabi amallarni qo'llangan<sup>15</sup>. Bu esa ayollarning xavfsizligini qurbon qilish evaziga amalga oshirilgan davlat siyosati sifatida baholangan. Shu bois, so'nggi yillarda O'zbekiston hukumati ham bu muammoga jiddiy e'tibor qaratdi. **2019-yilda "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida" qonun** qabul qilinib, himoya orderi instituti joriy etildi<sup>16</sup>. **2023-yil aprel** oyida esa **Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi va Jinoyat kodekslariga o'zgartishlar** kiritilib, maishiy zo'rvonlikni alohida jinoyat sifatida kriminalizatsiya qiluvchi norma qabul qilindi. Hatto, bu islohotlar **Amnesty International** tashkilotining rasmiy internet manzilida ham yoritildi<sup>17</sup>.

Umuman olganda, oila institutining mustaqilligi prinsipiga muvofiq, davlat oilaviy munosabatlarga bevosita aralashmaydi, balki uning vazifasi oiladagi huquqiy tenglikni kafolatlash va oilaviy huquq me'yorlarining buzilishini oldini olishdan iborat. **Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasining 8-moddasida** ham "Davlat organlari oilaviy va shaxsiy hayot bilan bog'liq masalalarga aralasha olmaydi, faqat qonunga muvofiq va demokratik jamiyatda zarur bo'lgan hollarda aralashishi mumkin. Bu milliy xavfsizlik, jamoat tartibi va xavfsizligi, mamlakat iqtisodiy farovonligi, tartibsizlik yoki jinoyatlarning oldini olish, sog'liq va axloqni himoya qilish, shuningdek boshqalar huquq va erkinliklarini himoya qilish maqsadlarida bo'lishi mumkin," – deyiladi<sup>18</sup>. Davlatimizda ham oila qonunchiligi xuddi shu prinsip asosidas qabul qilingan. Oila qurishdan tortib, nikohni bekor qilish, farzand tarbiyasi va oilaviy masalar bilan bog'liq boshqa shaxsiy nomulkiy munosabatlar hech kimning aralashuvizisiz er-xotinning kelishi orqali hal qilinishini nazarda tutadi. Masalan, birgina nikohdan ajralish holida ham davlatning aralashuvini, ham oila mustaqilligini ko'rishimiz mumkin. Xotining homiladorlik

---

<sup>15</sup> Human Rights Watch. [https://www.globalcitizen.org/en/partners/human-rights-watch/?gad\\_source=1&gad\\_campaignid=22819602432&gbraid=0AAAAACnN8Mzf7OwL8BfOIJ5auX3wrmrc7&gclid=Cj0KCCQiAm9fLBhCQARIsAJonOcuex4-dUrAyb7brbbWeOP-iTrPDikaoQohEpowl4Thpj1Ue7U-XtacaAjHIEALw\\_wcB](https://www.globalcitizen.org/en/partners/human-rights-watch/?gad_source=1&gad_campaignid=22819602432&gbraid=0AAAAACnN8Mzf7OwL8BfOIJ5auX3wrmrc7&gclid=Cj0KCCQiAm9fLBhCQARIsAJonOcuex4-dUrAyb7brbbWeOP-iTrPDikaoQohEpowl4Thpj1Ue7U-XtacaAjHIEALw_wcB)

<sup>16</sup> Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risidagi qonun. <https://lex.uz/acts/-4494709>

<sup>17</sup> Amnesty international. <https://www.amnesty.org/en/>

<sup>18</sup> European Convention of Human Rights (ECHR). Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasi. [https://www.echr.coe.int/documents/d/echr/convention\\_ENG](https://www.echr.coe.int/documents/d/echr/convention_ENG)

vaqtida va bola tugʻilganidan keyin bir yil mobaynida er xotining roziligisiz nikohdan ajratish toʻgʻrisida ish qoʻzgʻatishga haqli emasligi davlat tomonidan onalik va bolalikni himoya qilish maqsadida oʻrnatilgan cheklov boʻlsa, er-xotinga yarashish uchun 3 oydan 6 oygacha muddat berishi oilaviy munosabatlarni buzib kirmaslik va oʻzaro er-xotin kelishuviga erishish maqsadida joriy etilgan. **Oila kodeksining 41-moddasiga** koʻra agar sud er va xotinning bundan buyon birgalikda yashashiga va oilani saqlab qolishga imkoniyat yoʻq deb topsa, ularni nikohdan ajratishi ham oilaviy munosabatlarga davlatning aralasha olmasligini bildiradi. Chunki, ajralishning aniq asoslarini belgilab qoʻyish oilaviy qadriyatlarni buzib kirishdek baholanadi.

Davlatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga qoʻshimcha ravishda oila huquqida nikoh shartnomasining ahamiyatini oshirish boʻyicha ham chora-tadbirlar koʻrilishi lozim. Chunki dunyo mamlakatlari bilan taqqoslaydigan boʻlsak, nikoh shartnomasi instituti bizning huquq sohamizga yangi kirib kelganligi bois, afsuski, amaliyotda keng tarqalmagan. Agar davlat tomonidan nikoh qayd etish paytida majburiy bosqich sifatida mustahkamlab qoʻyilsa, er-xotinning mulkiy munosabatlarini tartibga solish tizimi tubdan yangilanar edi. Eng ahamiyatlisi, fuqarolik ishlari boʻyicha sudlarning ish hajmi kamayib, mulkiy ulushlar bilan bogʻliq protsess tezlashar edi. Nikoh shartnomasining xalqimiz orasida faqat nikohdan ajralgandan keyin mulkni boʻlish toʻgʻrisidagi kelishuv sifatida qaralishiga chek qoʻyish va nikoh shartnomasining asl mazmunini yetkazish nur ustiga nur boʻlar edi. Shu masalada ommaviy tadbirlar oʻtkazilishi va mutaxassislar tomonidan tushuntirishlar berilishishi esa, shak-shubhasiz, samaradorlikni oshiradi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, Oʻzbekiston Respublikasida oilani mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosati ijtimoiy barqarorlikni taʼminlash va oilaviy qadriyatlarni saqlashga qaratilgan. Davlat oilaviy munosabatlarga bevosita aralashmaydi, faqat oiladagi huquqiy tenglikni kafolatlash va buzilishlarning oldini olish bilan cheklanadi. Xalqaro tajriba va huquqiy meʼyorlar oilani jamiyatning tabiiy va fundamental birligi sifatida eʼtirof etadi va davlatlarga oilaning himoyasi, bolalar va ayollarning huquqlarini taʼminlash hamda gender tengligini saqlash majburiyatini yuklaydi. Milliy qonunchilik esa ushbu prinsiplarni amaliyotga tatbiq etib, er-xotin va bolalarning huquq va majburiyatlarini mustahkamlash, oilani barqaror asoslarda saqlash va davlat aralashuvini aniq chegaralash orqali oilani

himoya qiladi. Shu bilan oilaviy mustaqillik va davlat mas'uliyati o'rtasida oqilona muvozanat saqlanadi. Maqolaning yakunini Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning sog'lom bolani, avvalo, sog'lom muhit shakllangan oilada kamol topishini borasidagi quyidagi fikrlari bilan yakunlasak, "Biz oilani hayot davomiyligini ta'minlaydigan, nasllar taqdiriga kuchli ta'sir ko'rsatadigan tarbiya maskani sifatida qabul qilamiz. Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat odamiylik mehr-oqibat, o'z vataniga, xalqiga sadoqatli bo'lish kabi oliyjanob fazilatlar aynan oila muhitida shakllanadi"<sup>19</sup>.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. International Covenant on Civil and Political Rights (ICCPR). Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt.

[https://treaties.un.org/doc/treaties/1976/03/19760323%2006-17%20am/ch\\_iv\\_04.pdf](https://treaties.un.org/doc/treaties/1976/03/19760323%2006-17%20am/ch_iv_04.pdf)

2. International Covenant on Economic Social and Cultural Rights (ICCPR). Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt.

<https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-economic-social-and-cultural-rights>

3. European Convention of Human Rights (ECHR). Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasi.

[https://www.echr.coe.int/documents/d/echr/convention\\_ENG](https://www.echr.coe.int/documents/d/echr/convention_ENG)

4. The Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination against Women (CEDAW). Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya. <https://www.ohchr.org/en/treaty-bodies/cedaw>

5. Human Rights Watch. [https://www.globalcitizen.org/en/partners/human-rights-watch/?gad\\_source=1&gad\\_campaignid=22819602432&gbraid=0AAAAACnN8Mzf7OwL8BfOIJ5auX3wrmrc7&gclid=Cj0KCQIAm9fLBhCQARIsAJ0NOcuex4-dUrAyb7brbbWeOP-iTrPDikaoQohEpowl4Thpj1Ue7U-XtacaAjHIEALw\\_wcB](https://www.globalcitizen.org/en/partners/human-rights-watch/?gad_source=1&gad_campaignid=22819602432&gbraid=0AAAAACnN8Mzf7OwL8BfOIJ5auX3wrmrc7&gclid=Cj0KCQIAm9fLBhCQARIsAJ0NOcuex4-dUrAyb7brbbWeOP-iTrPDikaoQohEpowl4Thpj1Ue7U-XtacaAjHIEALw_wcB)

<sup>19</sup> Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent:Ma'naviyat,2008.  
<https://ru.scribd.com/document/711723194/87-Yuksak-Ma-Naviyat-Yengilmas-Kuch>

6. Amnesty international. <https://www.amnesty.org/en/>
7. United nations population fund. <https://www.unfpa.org/>
8. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. <https://lex.uz/docs/-104720>
9. International practical conference “Social support and preparation for family life for female students in the higher education system: gender equality, national experience and opportunities for international cooperation”, November 17-18, 2025. Oila mustaqilligi va davlat aralashuvi o‘rtasidagi huquqiy muvozanat: milliy qonunchilik va xalqaro standartlar tahlili. Xaydarova Umida Pulatovna. [https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/00125/125\\_u\\_20251117\\_163045\\_3%20\(24\).pdf](https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/00125/125_u_20251117_163045_3%20(24).pdf)
10. Karimov.I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. Toshkent:Ma‘naviyat,2008. <https://ru.scribd.com/document/711723194/87-Yuksak-Ma-Naviyat-Yengilmas-Kuch>
11. Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risidagi qonun. <https://lex.uz/acts/-4494709>